

Ismailov Murodulla Kaxramonovich

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

murodullaismailov89@mail.ru

SANOGEN REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvarlarining ilmiy merosi va unda inson tafakkuri, uning sifatlari haqida bildirgan fikrlari tahlil qilingan. Shuningdek, muallif bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida sanogen refleksiyani rivojlantirishda qomusiy olimlar asarlarining ahamiyati haqida to'xtalgan.

Kalit so'z va iboralar: tafakkur, nekbin aql, xudbin aql, sanogen refleksiya, "Avesto" kitobi, aqlning 27 sifati, tarbiya zamoni, fikr tarbiyasi.

HISTORICAL BASIS OF THE DEVELOPMENT OF SANOGEN REFLECTION

Abstract. This article analyzes the scientific heritage of Eastern thinkers and enlighteners and their ideas about human thinking and its qualities. The author also touches upon the importance of the works of encyclopedic scientists in the development of sanogenic reflection in future social workers.

Keywords and phrases: thinking, optimistic mind, selfish mind, sanogenic reflection, the book "Avesta", 27 qualities of mind, the era of education, education of thought.

KIRISH.

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonida inson aql-zakovati hamda ma'naviyati jamiyatni rivojlantiruvchi muhim omil va vosita ekanligi tobora ayon bo'lib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun zarur ijtimoiy faol fuqarolar, yuksak saviyaga ega mutaxassislar, mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion ta'lim muhitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir shaxsni tayyorlash muammosini yanada dolzarblashtirmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimini rivojlantirish xalqaro dasturida talabalar faoliyatini rivojlantirishda "fikriy aks ettirish amaliyoti"ga (reflective practitioner) [3] yo'naltirilgan taktikasini qaror toptirish, ijodiy va ratsional yondashuv uyg'unligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy hamda kasbiy sifatlarga ega, ma'naviy boy, sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni [1]da ko'zda tutilgan asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Zero, mamlakatning jahon hamjamiyatida egallagan o'rni uning intellektual salohiyatli yoshlari bilan belgilanadi. Shu bois, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash va ularni yetuk malakali kadrlar qilib tayyorlash masalasi davlat siyosatining bosh maqsadiga aylandi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, **"Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!"** [2]. Shu sababli barchamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

TADQIQOT USULI.

Tadqiqot ishida muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan asosiy maqsad inson tafakkurini rivojlantirish asosida uning dunyoqarashini shakllantirish. Inson tafakkurini rivojlantirish murakkab jarayon bo'lib, u o'ziga xos psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar ta'sirida rivojlanib boradi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasalarida qulay shart-sharoitlar yaratish zarur bo'lib, unda talabalar yangi tafakkur turini - fikrlash faoliyatini jonlantiradigan, ichki ziddiyatni bartaraf etadigan, ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladigan yangicha fikrlash tarzini o'zlashtirishi lozim. Ilmiy adabiyotlarda bunday fikrlash "sanogen tafakkur" yoki "sanogen refleksiya" deb ataladi.

Sanogen tafakkur ("sanos" (lot.) – davolamoq, sog'lomlashtirmoq, tasalli bermoq, ruhlantirmoq, tartibga keltirmoq va "geno" (lot.) – davolaydigan) sog'lomlashtiradigan, tasalli beradigan va ruhlantiradigan tafakkurni keltirib chiqarishdir [5, 8-b.; 10, b.48].

Sanogen tafakkurning asosiy ahamiyati o'z-o'zini kamolga yetkazish maqsadlariga erishish uchun sharoit yaratish, ya'ni fe'l-atvor hamohangligi, o'z-o'zi va atrofdagilar bilan kelishish, shuningdek yomon odatlarni bartaraf etish, o'z his-tuyg'ularini boshqarish, o'z ehtiyojlarini nazorat qilishdir. Quyida sanogen refleksiya mazmunining tarixiy-nazariy asoslari tahliliga to'xtalamiz.

Sanogen refleksiyaning rivojlanish tarixini tadrijiy o'rganish uning uzoq yillar avval shakllanib boshlaganini ko'rsatadi. Ta'lim jarayonida shaxs dunyoqarashi va tafakkurini barqaror rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari eng qadimgi yozma manbaalar hamda Abu Nasr Forobiy [7], Abu Rayhon Beruniy [8], Abu Ali Ibn Sino [6, 304-b.], A.Navoiy [3, 194-b.], A.Avloniy [9] kabi Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar olimlarning qomusiy asarlarida yoritib berilgan.

"Avesto" ko'plab qo'lyozma manbaalar singari qomusiy mohiyatga ega bo'lgan asar hisoblanib, unda inson tafakkuri bilan bog'liq va boshqa ko'plab masalalar xususida falsafiy mushohadalar yuritiladi. Zardushtiylik ta'limoti asosan "Andeshai nek" (pok e'tiqod, yaxshi fikr), "Guftori nek" (to'g'ri, rost so'z), "Kirdori nek" (yaxshi amal)ga suyanadi. Ushbu axloqiy uchlik g'oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yaratilgan barcha ma'rifiy asarlar mazmunining shakllanishiga asos bo'lgan. Shu bilan birga, unda insonning inson sifatida ma'naviy va moddiy jihatdan kamol topishi uchun zarur bo'lgan muayyan talablar o'z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida Sharq, balki G'arb xalqlarining ham muhim ma'naviy merosi bo'lib hisoblanadi.

"Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan uch asosiy g'oya "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilda hozirgi kun uchun ham behad ibratli bo'lgan saboqlar borligini ko'rish mumkin. "Ezgu niyat, so'z va ish birligini jamiyat hayotining ustivor g'oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma'naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog'liq, nechog'li mustahkam hayotiy asosga ega ekani, ayniqsa e'tiborlidir" [11, 732-b.], deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov.

Birgina "Yaxshi fikr" iborasining mazmuni o'zida ilohiy qonun ruhidagi g'oyalarga ega bo'lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko'rsatish, fikrlashdagi sog'lomlik, yovuzlikni qoralash, yomon fikr yuritmaslik, kishilarning baxt-saodati yo'lida harakat qilish, ahillik, barcha insonlar bilan birga do'stlik va hamjihatlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi.

Sog'lom fikr yuritish bilan bog'liqlikda "Avesto"da quyidagi fikr keltirilgan: "Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Ezgu niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda bo'lmagan inson yaxshilik haqida o'ylamaydi, burch va adolat haqida unutadi hamda nojo'ya harakatlar qiladi".

"Avesto"dagi uchlikning asosiy mazmuniga yondashiladigan bo'lsa, fikr, so'z va ishning birligiga har bir insonda bo'lishi lozim bo'lgan xususiyatlar sifatida qarash mumkin. Shuningdek, har bir shaxsning ongi, dunyoqarashi, axloqi va hayot haqidagi tasavvurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langan. Xullas, "Avesto"da insonning barkamol bo'lib yetishishida uning so'zi, fikri hamda ishi ezgu bo'lishi va ezgulikning tantanasi uchun xizmat qilishiga katta e'tibor beriladi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlarida shaxs kamoloti haqidagi fikrlari, axloqiy yetuklik va mukammallik haqidagi g'oyalari insoniyat tafakkur xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'lib, asrlar mobaynida dunyo xalqlarini o'zining sermazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan hayratga solgan.

Buyuk olim Abu Nasr Forobiy aql orqali tafakkur yordamida bilishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qilgan. Tafakkur mavhumlikka, umumiylik, bilvositalilikka, ya'ni sezgilar orqali bilish xususiyatlariga ega, deb tushuntiradi. Avvalo, har qanday insonning mohiyati uning aqlida ekanligiga alloma diqqatni qaratib, quyidagi fikrni keltirib o'tgan: "Inson mohiyati aqlda, aqlning mohiyati harakatda namoyon bo'ladi" [7, 86-b.]. Forobiy ta'limotiga ko'ra, tafakkur orqali inson materiyaning sezgilarga noma'lum bo'lgan tomonlarini, umumiy qonuniyatlarini, mohiyatini biladi, san'at, ilm-fan to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladi. Forobiyni ijodiy fikr yuritish, tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatiga ega.

Sanogen refleksiya bilan bog'liq nazariy-metodologik masalalarni hal qilishda Abu Rayhon Beruniy hamda Ibn Sinolarning fikrlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Beruniy – ta'lim va tarbiya masalalariga chuqur qiziqqan. Insonning boshqa mavjudotlardan uning tafakkuri ajratishini ta'kidlab, o'z g'oyalarini ilgari suradi. Beruniy o'zining mashhur "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida "ma'naviy mamnuniat konsepsiyasi"ni ilgari suradi. Unga ko'ra: "Oqil kishi hamma narsani aql-idrok va farosat bilan his qilgandagina ma'naviy mamnuniat sezadi, holbuki, beg'am odam jismoniy lazzatnigina tan oladi" [8, 32-b.].

Inson tafakkurining qudrati shundaki, uning yordamida voqea va hodisalarni bir-biriga solishtirish, tahlil qilish orqali rostni yolg'ondan, adolatni adolatsizlikdan, yaxshini yomondan, haqiqatni esa nohaqlikdan ajratish mumkin. Shundan kelib chiqqan holda, Beruniy tafakkurning analiz, taqqoslash, solishtirish kabi operatsiyalarini ilgari suradi va tafakkurning ushbu xususiyatlarini rivojlantirish lozimligini ta'kidlaydi. Bu esa talabalarda sanogen refleksiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abu Ali Ibn Sino o'zining "Tush ta'biri", "Tib qonunlari" asari va "Tayr" (qush), "Hayy ibn Yaxson" kabi qissalarida insonlarni bilim olishga chaqiradi: "Bir-biringizdan bilim o'rganib, kamol topishingiz uchun dil pardasini ochib tashlanglar". "Hayy ibn Yaxson" qissasida dunyoni va insonlarning fe'l atvorini, tabiatini chuqurroq tushunish uchun ilmni, mantiqni bilishga da'vat etadi. Chunki bu ilm kishi didini o'stiradi, fikr doirasini kengaytiradi. Ibn Sino bu haqida shunday deydi: "Farosat ilmi foydasi naqd ilmlardandur. Bu ilmni bilib olsang, u senga kishilarning pinhoniy fe'l – atvorini bildiradi. Farosat ilmidan bahramand bo'lsang, juda o'tkir bo'lib ketasan" [3].

Ibn Sino o'zining qator asarlarida insonni o'rganish orqali ko'p narsalarga erishish mumkinligini va bunda albatta aql, farosat, tafakkur qo'llanilishi lozim ekanligini bayon etadi. Bemor shaxsini, uning mijoz toifasini, fe'l-atvorini bilish uchun aql, farosat darkor bo'lishini ta'kidlaydi. Buning uchun esa avvalo insonda uchta tana, ruh va aql salomatligi lozim ekanligini uqtiradi.

Milliy davlatchiligimiz asoschisi, o'z davrining mohir siyosatchisi Amir Temur qimmatli fikrni zarurat tug'ilganda maqsadga muvofiq tadbiq etishni ta'kidlaydi. Buyuk sarkardaning o'giti sifatida bizga qoldirgan merosi – kengashish, muzokara qilish, mulohaza yuritish, fikr almashinish mashqlari - fikrlashni takomillashtirishning asosi bo'lib hisoblanib, bizningcha, mazkur jihatlar bo'lajak ijtimoiy ish xodimlarida mustaqil fikrlash, to'g'ri xulosa va yechimga kelish hamda sanogen fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiy ijodi falsafiy-badiiy majmua xazinasining aynan o'zginasidir. Bu ijodiyot xalq ijtimoiy hayotining turli jabhalaridan umumlashgan bo'lib, u umumiydan xususiyga va xususiyan umumiyga aylanib turadi. Xalqning ijtimoiy hayoti va yakka shaxsning biror xususiyati yo'qki, u buyuk alloma diqqatini o'ziga tortmagan bo'lsin, jumladan, inson tafakkuri haqida ham "Farhod va Shirin" dostonida u shunday yozadi:

"Har ishki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod" (3, 67-b.).

Ya'ni, mutafakkir aytmoqchiki inson biror ishni amalga oshirmoqchi bo'lsa, yoki o'rganishni istasa albatta unda dastlab ong (aql) bo'lishi lozim. Va bunda inson o'z tafakkuriga tayanadi.

Shuningdek, A.Navoiy inson tafakkurining buyuk qudratga ega ekanligini ta'kidlashdan tashqari uning "aqli" va "aqlsiz" odamlar tasnifiga bergan ekspert bahosi alohida e'tiborga molik. Allomaning asarlarida bu tushuncha 27 o'rinda ishlatilgan bo'lib, uning 27 darajasi va 27 sifati haqida fikr yuritgan. Xususan, aqlning turli sifatlari quyidagicha tavsiflangan: aql aqli – xushyor ong egalari; aql vosvosi – aql vasvasasi; aql dehqoni – ongli tushuncha, mulohaza, tajribali, ongli kishi; aql kuyi – aql – idrok yo'li; aql mezoni – ong, aql o'lchovi, aql tarozisi; aql muhandislari – donishmandlar, olimlar, bilimdonlar; aql oldida – ongli tushunish bo'yicha, aqlan; aql piri – tafakkur ustoz, farosatli kishilar; aql sarrofi – aql zargari, aql baholovchisi; aql uyi – miya, fikri-hayol; aql xirmoni – aql mujassamligi; aql chiri – aql kuchi, aql quvvati; aql eshigi – aql yo'li, ongli yo'li; aql o'ti – zehn o'tkirligi, hushyorlik; aql qushi – fikrlashning tezligi; aql hisobi – ong doirasi, chegarasi; aqli xudbin- faqat o'zini o'ylovchi shaxs; aqli tanqidiy – o'tkir, sezgir, nozik aql va hokazolar.

MUSHOHADA.

Shunday qilib, mutafakkir olimlar aqlni rangbarang jihatlariga ajratib, ularga asoslangan holda ikki toifali aql sohiblari bo'lishi mumkinligi haqida xulosa chiqarishga qaror qiladi: nekbin aql egalari va xudbin aql egalari. Birinchilaridagi aql insoniyatga ezgulik keltirib, o'z sohibini ham baxtli qilsa, ikkinchisi – aksincha, o'z manfaati yo'lidagina aql ishlatib, o'zgalarga ziyon yetkazadilar, xolos.

Demak, mutafakkir orzu qilgan komil inson jismonan sog'lom, nekbin aql egasi va ma'naviyati yuksak bo'lish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Navoiy qimmatli fikrni zarurat tug'ilganda maqsadga muvofiq tadbiq etishni ta'kidlaydi. Alisher Navoiy asarlarining tahlili shuni ko'rsatadiki - muzokara qilish, mulohaza yuritish, fikr almashinish mashqlari – inson tafakkurini takomillashtirishning asosi hisoblanib, bizningcha, mazkur jihatlar bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, to'g'ri xulosa va yechimga kelish xususiyatlarini o'zida mujassam qilgan sanogen fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning asosiy mexanizmlari bo'lib xizmat qiladi.

Abdulla Avloniy yoshlarni o'qitish va tarbiyalash kabi muhim hayotiy masalalarni ko'tarib chiqqan, ularni to'g'ri hal qilishga uringan. "Fikr tarbiyasi, - deb yozadi adib "Turkiy guliston yohud axloq" asarida, - eng keraklisi, ko'p zamonlardan beri tanqid qilib kelingan, muallimlarning diqqatlariga suyanan, vijdonlariga yuklangan vazifadir. Fikr insonning ma'rifatli, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi" [9, 304-b.]. Olimning fikricha, bolaning aqliy rivojlanishi, ma'naviyati yuksalishida avvalo oila va o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir.

Qaysi davrda yashashidan qat'iy nazar sharq allomalari va ma'rifatparvarlari o'z asarlarida insonning aql-zakovati, tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan va buni o'z asarlarida chuqur tahlil qilganlar. Yosh avlodda mustaqil, ijodiy va sog'lom tafakkurni rivojlantirish asrlar davomida ham dolzarb muammo bo'lib kelgan.

XULOSA.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlaridagi shaxs kamoloti haqidagi g'oyalarning asosiy mohiyati, axloqiy kamolot va mukammallik haqidagi g'oyalari ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot, falsafa, diniy fikrlar taraqqiyoti insoniyat tafakkur xazinasiga qo'shilgan katta hissa bo'lib, asrlar mobaynida dunyo xalqlarini o'zining sermazmunligi, universalligi va insonparvarligi bilan hayratga solib kelmoqda. Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar olimlarining hayot yo'li, amalga oshirgan ishlari va asarlari alohida e'tirof ega bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ularning ilmiy merosidan samarali foydalanish katta didaktik imkoniyatlarni ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son 23.09.2020. <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yilda amalga oshirilishi belgilangan ishlar yuzasidan Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
3. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar. 1-kitob. Nashrga tayyorlovchi M.M.Xayrullayev). – T.: “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”, 1995y. – 194 b.
4. Valerie Lesniak. An Integrative Model of Spiritual Formation: A Work Always in Process. // Reflective Practice: Formation and Supervision in Ministry ISSN 2325-2855 © Copyright 2013 Reflective Practice: Formation and Supervision in Ministry All rights reserved.
5. Орлов Ю.М. Оздоравливающее мышление. Издание 2-е, исправленное Москва. «Спайдинг» 2006. - с. 136.
6. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. – 304 b.
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 222 b.
8. Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. – 96 b.
9. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Ma'naviyat, 2006. – 304 b.
10. Abduraxmonova Z.A. O'smir yoshdagi o'quvchilarda sanogen refleksiyani rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: Psix.fan.bo'y.falsafa dok. (PhD) diss. ...avtoref. – Toshkent, 2020. – 48 b.
11. Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik / N.Jo'rayev (A.Mahkam tarjimai). – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 732 b.